



UDK:32.328.11.78 (129)

Islomiddin J. ABRAROV,

PhD, mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: islomiddin87@gmail.com, ORCID: 0009-0002-3477-9596

PhD U.Ergashev taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING INSTITUTIONAL RIVOJLANISHI

Аннотация

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatining institutsional rivojlanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yoshlar siyosati institutlarining shakllanishi, modernizatsiyasi va barqaror rivojlanishini tavsiflovchi asosiy tendensiyalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar siyosati, institutsional rivojlanish, davlat boshqaruvi, inson kapitali, fuqarolik jamiyati, institutsionalizm, Yangi O'zbekiston, yoshlar instituti.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье с научной точки зрения анализируются особенности институционального развития государственной молодежной политики в условиях Нового Узбекистана. В статье также раскрываются основные тенденции, характеризующие формирование, модернизацию и устойчивое развитие институтов молодежной политики.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежная политика, институциональное развитие, государственное управление, человеческий капитал, гражданское общество, институционализм, Новый Узбекистан, институт молодежи.

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF STATE YOUTH POLICY IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article analyzes the features of the institutional development of state youth policy in the context of New Uzbekistan from a scientific perspective. The article also reveals the main trends characterizing the formation, modernization, and sustainable development of youth policy institutions.

Key words: New Uzbekistan, youth policy, institutional development, public administration, human capital, civil society, institutionalism, New Uzbekistan, youth institution.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida dunyo miqyosida inson kapitalining hal qiluvchi omili sifatida e'tirof etilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat boshqaruvining strategik yo'nalishlaridan biriga tobora aylanib bormoqda. Zamonaviy yondashuvlarda esa, yoshlar mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va innovatsion taraqqiyotini ta'minlovchi muhim strategik resurs hisoblanadi. Shu bois, yoshlarga oid davlat siyosati alohida ijtimoiy dastur sifatida emas, balki mamlakat boshqaruvining yaxlit institutsional tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirib kelinayotgan aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli demokratik va ma'muriy islohotlar ham ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu borada mamlakatimizda davlat boshqaruvinini modernizatsiya qilish jarayonida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy va institutsional mexanizmlari takomillashtirilib, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimi kompleks institutsional model asosida rivojlantirilmoqda. Albatta, mazkur jarayonda Konstitutsiyaning yangilangan normalari va sohaga oid huquqiy hujjatlar asosida yoshlar siyosati institutsional jihatdan takomillashtirilib, boshqaruv mexanizmlari va sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Shu o'rinda, institutsional yondashuvga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosati huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur holat, o'z navbatida, yoshlarning ta'lim, bandlik, tadbirkorlik, siyosiy ishtirok va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Keyingi

yillarda tashkil etilgan yangi institutlar va raqamli mexanizmlar yoshlar siyosati institutsional tizimini takomillashtirib, yoshlarni davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar siyosati institutsional tizimining samaradorligi, sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik va raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy masalaga aylanib bormoqda. Bu haqda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Barcha rahbarlar bir narsani bilib olsin: ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi! Biz yoshlarga bugundanoq sharoit qilib bermasak, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqilobiy tashabbuslarni ilgari surmasak, Yangi O'zbekistonni qanday barpo qilamiz"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi tubdan takomillashtirilib, o'tgan qisqa davr mobaynida muhim institutsional rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Ayniqsa, bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda mamlakatimizning yoshlarga oid siyosati haqida to'xtalib o'tar ekan: "Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda"[3], – deb ta'kidlab o'tgani bejiz emas, albatta. Binobarin, bugungi kunda

mamlakatimizda yoshlarimizning intellektual salohiyati yuksaltirish, fuqarolik faolligi va jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosati tizimli ravishda izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bu jarayon barkamol avlodni tarbiyalash va mamlakat taraqqiyotining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda taraqqiyot sari dadil odimlayotgan O'zbekistonda yangi dunyoqarashga ega, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zida namoyon etuvchi va uyg'un o'zlashtirgan har tomonlama barkamol avlod shakllanmoqda. Yoshlar kamoloti uchun zarur bo'lgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat siyosati yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan. Bu haqda Konstitutsiyamizning 79-moddasida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, deya belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 115-moddasi 5-bandida yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, oilani qo'llab-quvvatlash, mustahkamlash va himoya qilish, an'anaviy oilaviy qadriyatlarini saqlash bo'yicha choralar ko'radi[2], deya mustahkamlab qo'yilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, har qanday davlat va jamiyatni taraqqiy etishida eng avvalo, yosh avlod kamoloti uchun yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining institutsional rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, yizimli tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor maqsadi yoshlarni o'zgartirish emas, balki ularning fuqarolik jamiyatidagi faol ishtirokini ta'minlash, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda bilim, iqtidor va imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur institutsional shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Umuman olganda masalaga boshqa tomondan qaralganda yoshlar davlatning ijtimoiy siyosatidagi chora-tadbirlarning passiv oluvchisi emas, balki jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy o'zgarishlarning faol subyekti hisoblanadi[4]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning natijadorligi qabul qilingan dasturlar yoki normativ-huquqiy hujjatlar soni bilan emas, balki davlat va jamiyat institutlari o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi, boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligi hamda yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi amaliy ishtiroki darajasi bilan belgilanadi. Ana shunday institutsional yondashuv inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda, institutsional yondashuvda inson kapitali davlatning eng muhim strategik resursi sifatida namoyon bo'ladi. Davlat taraqqiyoti iqtisodiy resurslar bilan bir qatorda, inson kapitali va uni rivojlantiruvchi huquqiy, tashkiliy hamda ijtimoiy institutlarning samaradorligiga ham bevosita bog'liq. Zamonaviy institutsional nazariyaga ko'ra, inson kapitalini rivojlantirish ta'lim, ilm-fan, mehnat bozori va yoshlarga oid

davlat siyosati institutlarining o'zaro hamkorligiga tayanadi. Shuning uchun ham inson kapitaliga investitsiya kiritish davlatning uzoq muddatli institutsional rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o'rinda, barqaror institutsional muhit qonun ustuvorligi, davlat va jamiyat institutlari hamkorligi hamda fuqarolar ishtirokini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Xususan, yoshlarni sifatli ta'lim olishi, mehnat va davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini kafolatlash barqaror taraqqiyotning muhim institutsional omili hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, institutsional yondashuv davlat boshqaruvi samaradorligini vakolatlarining aniq taqsimlanishi, idoralararo hamkorlik, raqamli boshqaruv, ochiqlik va hisobdorlik orqali ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday institutsional muhit albatta, qaror qabul qilish sifati va davlat xizmatlari samaradorligini oshirib, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini tobora mustahkamlaydi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida davlatlar o'rtasidagi raqobatbardoshlik muhiti inson kapitali va institutsional salohiyati bilan belgilanmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda yoshlarga oid davlat siyosati milliy taraqqiyot strategiyasining muhim institutsional yo'nalishi sifatida shakllantirilib, yoshlar taraqqiyotning faol sub'ekti sifatida e'tirof etilmoqda.

Yangi O'zbekistonda institutsional islohotlar natijasida yoshlarga oid davlat siyosati mazmunan yangilanib, huquqiy asoslar, raqamli boshqaruv va idoralararo hamkorlik takomillashtirildi. Natijada yoshlar siyosati davlat boshqaruvining mustaqil institutsional tizimi sifatida rivojlanmoqda. Institutsional rivojlanishning muhim xususiyati boshqaruvning markazlashgan modeli bilan mahalliy tashabbuslar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda namoyon bo'lmoqda. Markaziy davlat organlari strategik qarorlarni ishlab chiqsa, hududiy va mahalliy institutlar ularni aholining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish vazifasini bajaradi. Bu esa davlat siyosatining manzilliligi va amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan isloh qilinib, qisqa muddatda muhim institutsional rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi va xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz yoshlar siyosati sohasida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat, deb topildi. Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi"[5]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati zamirida yoshlarni mamlakatimiz kelajagi sifatida alohida e'tibor qaratish, ularni yurtimiz istiqboli uchun munosib shaxslar etib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy institutsional tizimda raqamli boshqaruv yoshlarni muammolari va ehtiyojlarini tezkor aniqlash, davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va qarorlar ijrosini ta'minlash va monitoring qilishning muhim vositasiga aylanmoqda. O'z navbatida, institutsional rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi sheriklikni kuchaytirishdir. Bu esa, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar siyosati institutsional tizimini takomillashtirish uchun idoralararo axborot almashinuvini kuchaytirish ilmiy tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga keng tatbiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati umuman ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib, tadrijiy rivojlanish bosqichlarini hamda tendensiyalarni o'z

ichiga oladi. Yana bir muhim masala yoshlar siyosatini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan idoraviy yondashuvni amalga oshirish tushuniladi. Shu bois, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning hayot sifati va jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining institutsional modeli inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida shakllanmoqda. Institutsional yondashuv inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlik va samarali davlat boshqaruvini o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida baholaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi strategik institutsional mexanizm hisoblanadi. Yoshlarni davlat siyosati va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish ularning faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Jahondagi aholining har ikki nafaridan biri 30 yoshga to'lmagan. Ammo dunyo miqyosida parlament a'zolarining atigi 2 foizidan ham kamrog'i 30 yoshdan kichik yigit-qizlardir[7].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va unga a'zo davlatlar so'nggi yillarda yoshlar bilan ishlashni tobora kuchaytirib bormoqda. Bu quyidagilarni qamrab oladi: – BMT Xavfsizlik kengashining yoshlar, tinchlik va xavfsizlik bo'yicha ikkita, ya'ni 2250 (2015 yil) va 2419 (2018 yil)-sonli

rezolyusiyalarida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlashda yoshlarning asosiy roli tan olinadi;

– BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasi BMTning yoshlar bo'yicha faoliyatining dasturilamal hujjati sifatida qabul qilindi. Strategiya yoshlarni inson huquqlari egalari sifatida tan oladi. Bu strategiyaning beshta ustuvor yo'nalishidan biri yoshlar va inson huquqlari hisoblanadi;

– BMT yoshlar strategiyasini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar ham asosiy rol o'ynashi mumkin. Bu borada xorijlik tadqiqotchi Rishard Komenda biz O'zbekistonni faol davlatlardan biri sifatida bilamiz [8], deya ta'kidlashi alohida e'tiborga molikdir. Zero, yoshlar siyosati jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizm va strategiyalarni izchil amalga oshirishni talab etadi. Davlatdagi ijtimoiy barqarorlik ko'p jihatdan yoshlarning barcha qatlamlariga yo'naltirilgan kuchli ijtimoiy himoyaga, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yetarli shart-sharoit yaratilganiga bog'liqdir[7].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlik va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlovchi muhim institutsional tizim sifatida tobora shakllanib bormoqda. Zero, Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini institutsional yondashuv asosida takomillashtirish mamlakatimizni kelgusida barqaror rivojlanishi hamda sog'lom raqobatbardosh muhitni ta'minlashga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Prezident raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi // Prezidentning rasmiy veb-sayti. – 2023. – 11-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Azmu shijoatli yoshlarimizning zamonaviy bilimlarni egallab erishayotgan muvaffaqiyatlari yangi O'zbekiston kelajagiga tayanch” // “30-iyun – Yoshlar kuni”ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Yangi O'zbekiston” gazetasi, № 133 (1459), 2025-yil 1-iyul.
4. Bekmurodov M., Quronboev Q., Tangriev L. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T., 2017. – 92 b.
5. Rashidov Sh. Ayrim xorijiy davlatlarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari. Demokratlashtirish va inson huquqlari – 3/2020. B-27.
6. Rishard Komenda. Yoshlar huquqlari – BMT kun tartibida. Demokratlashtirish va inson huquqlari – 3/2020.
7. Луков В. Проблема обобщающих оценок положения молодежи // Социологические исследования. 2018, №8. – С. 27-28.